

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



**“MILLIY G'OYA TARG'IBOTI TEXNOLOGIYALARI”**  
fanining o'quv dasturi

**Bilim sohasi:** 100000 – Ta'lim  
**Ta'lim sohasi:** 110000 – Ta'lim  
**Ta'lim yo'nalishi:** 60112100 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

**JIZZAX-2022**

<b>Fan/modul kodi</b> 351MG'TTM06		<b>O'quv yili</b> 2022-2023	<b>Semestr</b> 4	<b>ECTS - Kreditlar</b> 4
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy			<b>Ta'lim tili</b> O'zbek	<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari</b>	64 Ma'ruza 28 Seminar 32	60	120
2.	<p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – talabalarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish hamda o'z-o'zini anglash va to'g'ri fikrlash ko'nikma va malakasini shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari fanining asoslarining mazmun-mohiyati, uslublari, vazifalarini taxlil etish; milliy g'oya targ'iboti jarayonlarning mohiyati, tarkibi, umumiy qonuniyatlarini ochib berish; milliy g'oyaning targ'ibot texnologiyalari ifodalangan kontseptual yo'nalishlar, uslublarda to'grisida talabalarga bilim berish; talabalarda milliy g'oyaning targ'ibot texnologiyalarini tizimiy funksional jixatdan taxlil etish kunikmasini rivojlantirish; milliy g'oya targ'iboti texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-uslubiy jixatlarini o'rgatishdan iborat.</p> <p style="text-align: center;"><b>II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-Mavzu: Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari: predmeti, maqsadi va vazifalari (2 soat)</b></p> <p>“Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari” kursining predmeti, maqsadi va vazifalari, uning o'ziga xos jihatlari. “Targ'ibot texnologiyasi” atamasining paydo bo'lishi. “Milliy g'oya targ'iboti texnologiyasi” tushunchasining ma'no-mohiyati. G'oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi o'zgarishlar. O'z an'analarimiz, tarixiy taraqqiyot davomida erishgan va erishayotgan yutuqlarimizni asrab-avaylash, mustaqilligimizni mustahkamlash, yoshlar ongiga Vatanga, millatga hurmat ruhida tarbiyalash- bugungi kunda milliy g'oyani targ'ib qilishning eng asosiy maqsadlaridan biridir. Bu jarayonlarni amalga oshirishning asosiy yo'llaridan biri-milliy g'oyani targ'ib qilish texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligini oshirish. “Texnologiya”- insonning aniq, murakkab jarayonni ketma-ketligi o'zaro bog'liq muolaja va amallar tizimiga taqsimlash orqali kafolatli natijalarga erishish maqsadida amalga oshiriladigan usullar ekanligi. Uning ko'rinishlari. Milliy g'oyaning targ'iboti texnologiyalari vazifalari: 1) milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari bo'yicha kompleks dastur yaratish; 2) milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarini yanada takomillashtirish; 3) milliy g'oya targ'ibotida yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishga erishish; 4) milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarida ta'lim tizimining faoliyatini yanada takomillashtirish; 5) milliy g'oya targ'ibotida interfaol usullardan foydalanish orqali uni ommalashtirish va bosqichma-bosqich singdirib borish; 6) milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatining yanada oshib borishi v.h..</p> <p><b>2-Mavzu: Milliy g'oya targ'ibotida ijtimoiy- gumanitar fanlarning o'rni va ahamiyati (2 soat)</b></p> <p>Milliy g'oya targ'ibotiga oid masalalarni talaba yoshlarga tushuntirishda kishilar hayotini to'la o'rganadigan ijtimoiy-gumanitar fanlarning imkoniyatlaridan unumli</p>			

foydalanish lozimligi. Mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni, xalqimiz turmushida roy berayotgan o'zgarishlarni keng, teran tahlil etish yo'li bilan yoshlarning ruhiy-ma'naviy olamida g'oyaviy bo'shliq yuzaga kelishiga yo'l qoymaslik – ijtimoiy-gumanitar fanlarning muhim vazifalaridan biri ekanligi.

G'oyaning mazmun-mohiyati shakllanishi va rivojlanishida falsafaning asosiy o'rin tutishi. G'oya va mafkura falsafiy asoslansagina, jamiyatdagi kishilarni, turli-ijtimoiy-siyosiy guruh va toifalarni birlashtirib, ular faoliyatini harakatga keltiruvchi kuchga aylanishi mumkinligi. Vatanimiz tarixini o'rganish orqali talabalar ongi va qalbiga milliy G'oyani singdirishning o'rni va ahamiyati. Talaba yoshlarda milliy tuyg'uni shakllantirishda adabiyot va san'atning keng imkoniyatlaridan foydalanish zarurati. Ma'naviyat asoslari, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, iqtisodiyot nazariyasi fanlari mavzularining milliy g'oyani yoritish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratishi.

### **3-Mavzu: Oliy ta'lim tizimida o'qitish texnologiyasi: mazmun-mohiyati, tuzilmasi va tasnifi (2 soat)**

Bugungi kunda barcha ta'lim tizimida, shuningdek oliy ta'lim tizimida ham ta'lim-tarbiya jarayonida katta o'zgarishlar amalga oshirilayotganligi. Zamonaviy mutaxassis kadrlarni tayyorlash masalasi davlat ta'lim standartlari doirasida kuchaytirilib, mutaqil bilimlarni to'ldirish va yangilash ko'nikmasi, izlanish olib borish, yangi echimlar topish, ijodkor shaxs bo'lish, mustaqil fikr yuritish kabilar shaxs sifatleri tarkibiga kirib ulguraganligi. An'anaviy o'qitish texnologik yondoshuvga o'z o'rnini bo'shatib berayotganligi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ilk bor mamlakatimiz ta'lim tizimida texnologiyalashtirish muammosi davlatning muhim buyurtmasi sifatida e'tirof etilib, o'quv tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlanganligi. Texnologiyalardan ta'lim sohasida foydalanish muammolari boyicha mamlakatimizda XX asrning so'nggi o'n yilliklarida, ayniqsa mustaqillik yillarida ko'plab katta ishlar amalga oshirilganligi.

Texnologiya (jarayon sifatida) uchta qoida bilan tavsiflanishi. Sanoat va ijtimoiy texnologiyalar. "O'qitish texnologiyasi" tushunchasining paydo bo'lishi. O'quv jarayoniga texnologik yondoshuv. Zamonaviy pedagogikada o'qitish texnologiyasining asosiy tavsifi. Oliy ta'lim tizimida o'qitish texnologiyasiga qo'yiladigan talablar.

### **4-Mavzu: Milliy g'oya fanining pedagogik texnologiya asosda o'qitish nazariyasi (2 soat)**

Mamlakatimizda mafkuraviy maqsadlarning tubdan yangilanishi, milliy g'oyaning omma ongiga uzluksiz singdirib borilishi pedagogik tafakkurni ham o'zgartirayotganligi. Mafkuraviy jarayonlar pedagogik voqelikni aks ettiradigan ta'limiy faoliyat loyihalarini asoslaydigan fan sohasini qamrab olishi. Yangi pedagogik bilimlar ko'lami Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida kengayib borayotganligi. Didaktikaning o'qitish nazariyasi sifatida ikki umumlashgan savolga javob berishi. "Nimani o'qitish kerak" (mazmun) "Qanday o'qitish kerak" (texnologiya). Texnologik yondoshuvning izohli-tasvirli yondoshuvdan farqli jihatlari. Har qanday pedagogik texnologiya asosini ilmiy jihatdan qurilgan didaktik jarayon tashkil etishi.

O'qitish texnologiyalarini loyihalash qonunlari. Fan mavzulari boyicha o'quv maqsadlarini aniq belgilash pedagogik texnologiyani loyihalashning dastlabki sharti hisoblanishi. Mavzu maqsadini aniq o'rnatish borasidan vazifalar.

O'quv fani mavzusi bo'yicha o'quv axborotlarini saralash qonuni. O'quv elementlari (O'E) va fan obyektlari (FO). Fan rivojining "abstraktsiya pog'onalari".

Didaktik jarayon qurish va o'quv vaqti davomida uni amalga oshirish qonuni.

Didaktik jarayon bilan bog'liq bo'lgan uch komponentlar: motivatsiya, talabaning o'quv-bilish faoliyati va uni boshqarish.

### **5-Mavzu: Milliy g'oya targ'ibotini takomillashtirishning asosiy omillari (2 soat)**

Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari: shakllari, sohalar va yo'nalishlarining xilma-xilligi. Bugungi kunda fanlarning keng aholi ongiga singdirishning ko'pgina texnologiyalari mavjudligi. Texnologiyalar jamiyatning barcha sohalarida o'zining muhim o'rniga ega

ekanligi. Boshqaruv, pedagogik, informatsion intellektual texnologiyalar. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarini ta'lim tizimida keng qo'llash yo'llari. Tarbiy. Fan va ilmiy muassasalar. Madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassalar. Adabiyot va san'at. Din. Sport. Oila. Mahalla. Mehnat jamoalari va birlashmalari. Zamonaviy tafakkur va ilg'or pedagogik usullardan foydalanish zarurligining mohiyati. Pedagogik texnologiyalarning ko'rinishlari - «ta'limiy texnologiya», «pedagogik texnologiya», «tarbiya texnologiyasi», «rivojlantirish texnologiyalari». Milliy g'oyani targ'ib qilishda ularning o'rni va ahamiyatining oshib borishi.

Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari; shakllari, sohalari va yo'nalishlari. Milliy g'oya targ'iboti samaradorligini oshirishda avvalo xalqimizning tarixiy merosi, azaliy an'analari, udumlari, tili, dini, ruhiyatiga, milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning dunyoqarashi va tafakkuriga asoslangan holda ishlarni tashkil etishning muhim mezonlari.

Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari: shakllari, sohalari va yo'nalishlari. Milliy g'oya targ'iboti samaradorligini oshirishda avvalo xalqimizning tarixiy merosi, azaliy an'analari, udumlari, tili, dini, ruhiyatiga milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning dunyoqarashi va tafakkuriga asoslangan holda ishlarni tashkil etishning muhim mezonlari.

#### **6-Mavzu: Milliy g'oya targ'iboti samaradorligini oshirishning dolzarb vazifalari (2 soat)**

Milliy g'oyaning samaradorligini oshirishning targ'ibot texnologiyalariga ham bog'liqligi. Uning aholi ongiga singdirish, tushuntirish va mohiyatini ochib berishda ahamiyati. Targ'ibot texnologiyalarining samaradorligiga erishishda targ'ib etish yangiliklarini, ta'limiy jarayonlardagi mustaqillikni ta'minlab berishi bilan ajralib turishi lozimligi. «Izohli-tasviriy yondashuv» texnologiyalarida yangi yo'nalish ekanligi. Uning samaradorlik darajasi o'lchamlari. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining samaradorligini sotsial, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, insonlarning turmush sharoitida yangilanishlar, o'zgarishlar bilan bog'liqligi.

Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining samaradorligini oshirishning yo'llari:

- Targ'ibot texnologiyalarida milliy g'oyaning mohiyatini, mazmunini, foydali jihatlarni xolisona ko'rsatib berish;
- Ikki va ko'p tomonlama aloqa munosabatlari tizimini shakllantirish;
- Milliy g'oya targ'ibotida so'z va amal birligi. Jamoatchilikning qiziqishi, maqsad va intilishlarini hisobga olish. Targ'ibotlarning ishonchliligini ta'minlash.

#### **7-Mavzu: Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologik uslublar (4 soat)**

Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologik uslublar tushunchasi, uning ma'no-mazmuni. Milliy g'oyani targ'ib qilishning an'anaviy va zamonaviy yo'nalishlari. Uni tushunarli, hammabop texnologiyalar asosida ommalashtirish. Yangi zamonaviy texnologiyalarni milliy g'oya takomilida alohida nisbatga egaligi. Zamonaviy texnologik uslublar to'g'risida an'anaviy nazariyalar, modernizatsiya jarayonlari.

Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologiyalarning asosiy vazifasi - targ'ibot yo'llarini ko'rsatib berish, uning natijaviyligini, tezkorligini, texnikaviy qurollanganligini oshirishga qaratilganligi. Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy o'zaro muloqot, bahs, munozara, masofali o'qitish, «Ekspert baholash» usuli, «Klaster» usuli, «Sinkveyn» usuli, «Oyinlar nazariyasi» usuli, «Aqliy hujum» usuli, «Menyu» usuli va shu kabi interfaol usullarni tashkil qilish uslublaridan foydalanishning ahamiyati.

#### **8-Mavzu: Milliy g'oya targ'ibotida «Jamoatchilik bilan aloqalar» (2 soat)**

Milliy g'oya targ'ibotida «Jamoatchilik bilan aloqalar» tushunchasi, ma'no va mazmuni. Insonning murakkab mavjudot ekanligi. U axborotlarni, jarayonlarni turli xil tarzda qabul qilishi. Milliy g'oya targ'ibotida jamoatchilikning qabul qilish darajasi va yo'nalishlari. Jamoatchilik bilan ishlashda targ'ibot texnologiyalaridan foydalanish. Ulardan eng ko'p qo'llanilayotgani «jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyasi ekanligi. Uning ko'rinishlari, shakllari va o'ziga xos jihatlari. Texnologiyani qo'llash va uni qabul qilishning mohiyati.

Milliy g'oyaning mohiyatini tushuntirishda, uni qo'llab-quvvatlashlariga erishishda jamoatchilik bilan aloqalarning o'rni. Bu jarayonda muammolarni hal qilishda jamoatchilikning fikriga tayanish.

Milliy g'oyani targ'ib etishda jamoatchilikning manfaati va istaklarini o'rganish. Fuqarolarni yot, zararli mafkura va g'oyalar ta'siridan himoyalash vazifalarini amalga oshirishda "jamoatchilik bilan aloqalar" texnologiyasi ko'rinishlari. Ularni yot va zararli, g'oyalarning ta'siridan saqlashda milliy g'oyaga tayanishning ahamiyati. Jamoatchilik fikri ko'rinishlari. Jamoatchilik fikrida obyektivlik va subyektivlik holatlari.

#### **9-Mavzu: Milliy g'oya targ'ibotida Ommaviy axborot vositalarining o'rni (2 soat)**

Milliy g'oyani yangi texnologiyalar asosida targ'ib qilish, uni bosqichma-bosqich asosida amalga oshirish. Milliy g'oya targ'ibotida Ommaviy axborot vositalarining o'rni. Ommaviy axborot vositalarining "to'rtinchi hokimiyat" sifatidagi asosiy mezonlari. OAVning milliy g'oyani aniq va tezkor ravishda ta'minlab berishdagi ta'siri. Jamoatchilik fikrini milliy g'oya negizlari va tamoyillari asosida shakllantirish vazifalari. OAV orqali turli yot g'oyalar kirib kelishining oldini olish imkoniyatlari. "Ommaviy madaniyat" ga qarshi ta'sir ko'rsatish usullari. Turli OAV tashkil etilishi. OAV – milliy g'oya tamoyillari va negizlariga tayanib faoliyat olib borishi zarurligi. Globallashuv va OAV ko'rinishlari. Internet tizimi. Reklama. e'lonlar. Turli xil kinofil'mlar targ'iboti. Seriallar. An'anaviylik va zamonaviylik munosabatida milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining ahamiyati.

#### **10-Mavzu: Milliy g'oya targ'ibotida xalq og'zaki ijodidan foydalanishning o'ziga xos usullari (2 soat)**

Milliy g'oya targ'ibotida xalq og'zaki ijodini o'rganishning ahamiyati katta ekanligi. Xalq oyinlari, xalq og'zaki ijodining ma'naviy-ma'rifiy imkoniyatlari ommabopligi bilan ajralib turishi. Avloddan-avlodga o'tib kelgan fol'klor janrlari o'zining mazmunan tiniqligi, sodda va ravonligi, shaklan mukammalligi va badiiy teranligi bilan tinglovchi qalbiga tez singib ketishi. Xalq og'zaki ijodining dostonchilik, baxshichilik yo'nalishlaridagi ijod namunalarida ham yoshlarning ma'naviy- ruhiy kamolotini yuksaltirishga xizmat qiladigan qator bunyodkor g'oyalar o'z aksini topganligi.

Xalq og'zaki ijodi voyaga etayotgan avlod qalbida milliy ruhiyatning uyg'onishiga ta'sir qilib, o'zlikni, azaliy qadriyatlarni anglashga yordam berishi, ajdodlar ruhini e'zozlash, tarixni teran his etishga da'vat etishi.

Xalq oyinlarini tiklash borasida amaliy hatti –harakatlar olib borish zarurligi. Xalq oyinlarini tiklashda oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamda milliy g'oya targ'ibotiga mas'ul tashkilotlar hamkorligini yo'lga qoyish lozimligi.

Xalq og'zaki ijodini o'rganishga yangicha yondoshuvning talab etilishi.

#### **11-Mavzu: Milliy g'oya targ'ibotida milliy-madaniy markazlarning o'rni va roli (2 soat)**

Milliy g'oya va milliy mafkura – bu nafaqat o'zbeklarning, balki O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha o'zbekistonlik fuqarolarinng g'oya va mafkurasi ekanligi. Milliy g'oyada O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillari manfaatlarining ifoda etilganligi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 18-moddasida «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar», deb alohida yozib qoyilganligi.

Butun O'zbekistonda ko'p millat vakillari — o'zbeklar va tojiklar, turkmanlar va ruslar, tatarlar va koreyslar, qozoqlar va boshqa millat farzandlari og'a-ini bo'lib, hamkorlik va do'stlikda yashab kelayotganligi. Mamlakatimiz istiqololga erishgandan keyin rus, koreys, turkman, tojik milliy-madaniy markazlari tashkil etilganligi, ular turli ommaviy-siyosiy tadbirlarda faol ishtirok etib, istiqololimizni mustahkamlash, millatlararo totuvlikni rivojlantirishga hissalarini qo'shib kelayotganligi.

Milliy madaniy markazlarni milliy g'oya targ'ibotiga kengroq jalb etish katta ahamiyat kasb etishi. Milliy madaniy markazlar tomonidan o'tkaziladigan turli xil tanlovlar, ilmiy seminar va madaniyat kunlari xalqlar o'rtasidagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda

muhim rol o'ynashi.

**12-Mavzu: Globallashuv jarayonida yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirish texnologiyalari (2 soat)**

Dunyo rivojlanishining yangicha bosqichi. «Globallashuv» tushunchasi turli g'oyalar va mafkuralar ko'rinishlari va mafkuraviy ta'sirlar darajasi. Yot va zararli, tajovuzkor g'oyalar ham mavjudligi. Ana shunday xavflarni oldini olish va ularning ta'siriga javob berish qobiliyatiga ega bo'lgan «qalqon» xalqimizning an'ana va tarixini o'zida mujassam etuvchi, uni kelajakdagi taraqqiyotini belgilab berish uchun xizmat qiluvchi, bu – milliy g'oya ekanligi. Milliy g'oya mavjudligining o'zi etarli holat emasligi, uni bir butun holda mazmunini tushunish, qabul qilish va asrab-avaylashlari milliy g'oyani xalq va davlat manfaati sifatida qabul qilishning muhim ahamiyatga egaligi.

Har qanday jamiyatning taqdiri avvalo, uni a'zolarining mafkuraviy immunitetiga bog'liq ekanligi. Befarq va loqayd odamlardan tashkil topgan jamiyatning xavf-xatardan xoli bo'la olmasligi. Globallashuv sharoitida texnologiyalardan turli-xil maqsadda foydalanish ehtimoli. Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologiyalardan jamoat bilan munosabatlar tizimida ezgu maqsadlarga yo'nalganligining ahamiyati. Jamoada fidoiylik, vatanparvarlik va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish.

Globallashuv va liberallashuvning insonlar ongi va dunyoqarashiga ta'siri. Ma'naviy tahdid ko'rinishlari va ularning oldini olish. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lini amalga oshirishda turli ezgu g'oyalar ahamiyatining oshib borishi.

**13-Mavzu: Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari (2 soat)**

Milliy g'oyaning asosiy tashuvchisi – yoshlar ekanligi. Yoshlarning ongiga milliy g'oya xususiyatlarini singdirish, ularni an'analarimiz, tariximiz, taraqqiyotning kafolati ruhida tarbiyalash milliy siyosatimizning asosiy yo'nalishlaridan biri ekanligi. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalaridan foydalanishning asosiy maqsadi. Jamiyatning barcha a'zolari, shuningdek, yosh avlodni shu g'oya asosida tarbiyalash, ularni turli yot «mavkuraviy xavflar»dan himoya qilish. Ularda davlat va jamiyat manfaatlariga nisbatan ma'suliyat his qilish tuyg'usini shakllantirish. Yoshlarning milliy g'oya negizlariga hurmat, umuminsoniy qadriyatlarni hisobga olishga moyilligini oshirish. Yoshlar bilan ishlashda targ'ibot texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari hisobga olish.

Globallashuv jarayonida mafkuraviy targ'ibot texnologiyalarining ta'siri. Yoshlarning ongini zaharlash va ularni o'z manfaatlari yo'lida foydalanishning zararli oqibatlari. Yoshlar qatlami orasida milliy g'oya targ'ibotini keng ko'lamda yoyish, mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan turli interfaol usullaridan keng va ommaviy ravishda ta'lim tizimlarida foydalanishning milliy g'oya targ'iboti samaradorligiga ta'siri. Targ'ibot texnologiyalarining yangilanib va takomillashib borishi shart-sharoitlari. Undan foydalanishda yoshlarning xususiyatlarini hisobga olishning ahamiyati oshib borishi.

**III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari va rejalari	Soat
---	---	------

1	<p align="center"><b>Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari: predmeti, maqsadi va vazifalari</b></p> <p align="center"><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari fanining maqsadi.</li> <li>2. Milliy g'oya targ'ibotida texnologiyalarning o'rni va ahamiyati.</li> <li>3. Milliy g'oya targ'ibotida texnologiyalardan foydalanishning maqsadi haqida tushuncha berish</li> </ol>	2
2	<p align="center"><b>Milliy g'oya targ'ibotida ijtimoiy- gumanitar fanlarning o'rni va ahamiyati</b></p> <p align="center"><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Milliy g'oya targ'ibotiga kishilar hayotini to'la o'rganadigan ijtimoiy-gumanitar fanlarning imkoniyatlari.</li> <li>2. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning muhim vazifalari.</li> <li>3. G'oyaning mazmun-mohiyati shakllanishi va rivojlanishida falsafaning o'rni.</li> <li>4. Vatanimiz tarixini o'rganish orqali talabalar ongi va qalbiga milliy g'oyani singdirish.</li> <li>5. Talaba yoshlarda milliy tuyg'uni shakllantirishda adabiyot va san'atning o'rni.</li> <li>6. Milliy g'oya targ'ibotida Ma'naviyatshunoslik, O'zbekistonda rivojlantirish strategiyasi.Fuqarolik jamiyati fanlarining ahamiyati.</li> </ol>	2
3	<p align="center"><b>Oliy ta'lim tizimida o'qitish texnologiyasi: mazmun-mohiyati, tuzilmasi va tasnifi</b></p> <p align="center"><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1.Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalaridan foydalanish.</li> <li>2.“Kud strategiyasi” texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati.</li> <li>3.“Muhokama-munozara”, “Rotatsiya” texnologiyalaridan foydalanish.</li> </ol>	2
4	<p align="center"><b>Milliy g'oya fanining pedagogik texnologiya asosda o'qitish nazariyasi</b></p> <p align="center"><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1.Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari fanining maqsadi</li> <li>2.O'qitish texnologiyalarini loyihalash qonunlari</li> </ol>	2
5	<p align="center"><b>Milliy g'oya targ'ibotini takomillashtirishning asosiy omillari</b></p> <p align="center"><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1.Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari: shakllari, sohalari va yo'nalishlarining xilma-xilligi.</li> <li>2.Texnologiyalar jamiyatning barcha sohalarida o'zining muhim o'rniga ega ekanligi.</li> <li>3.Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari; shakllari, sohalari va yo'nalishlari.</li> </ol>	2
6	<p align="center"><b>Milliy g'oya targ'iboti samaradorligini oshirishning dolzarb vazifalari</b></p> <p align="center"><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1.Milliy g'oyaning samaradorligini oshirishning targ'ibot texnologiyalariga ham bog'liqligi.</li> <li>2.«Izohli-tasviriy yondashuv» texnologiyalarida yangi yo'nalish ekanligi.</li> <li>3. Milliy g'oya targ'ibotida so'z va amal birligi.</li> </ol>	2
7	<p align="center"><b>Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologik uslublar</b></p> <p align="center"><b>1-mashg'ulot</b></p>	4

	<p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <p>1. Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologik uslublar tushunchasi, uning ma'no-mazmuni.</p> <p>2. Milliy g'oyani targ'ib qilishning an'anaviy va zamonaviy yo'nalishlari.</p> <p>3. Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologiyalarning asosiy vazifasi</p> <p style="text-align: center;"><b>2-mashg'ulot</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <p>4. Zamonaviy texnologik uslublar to'g'risida an'anaviy nazariyalar, modernizatsiya jarayonlari.</p> <p>5. Milliy g'oya targ'ibotida natijaviylikni tezkorligini oshirishda interfaol usullarni tashkil qilish uslublardan foydalanishning ahamiyati.</p>	
<b>8</b>	<p style="text-align: center;"><b>Milliy g'oya targ'ibotida "Jamoatchilik bilan aloqalar"</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <p>1. Milliy g'oya targ'ibotida "Jamoatchilik bilan aloqalar" tushunchasining ma'no va mazmuni.</p> <p>2. Milliy g'oya targ'ibotida jamoatchilikning qabul qilish darajasi va yo'nalishlari.</p> <p>3. Jamoatchilik bilan ishlashda targ'ibot texnologiyalaridan foydalanish usullari.</p> <p>4. Milliy g'oyani targ'ib etishda "jamoatchilik bilan aloqalar" texnologiyasi ko'rinishlari.</p>	<b>2</b>
<b>9</b>	<p style="text-align: center;"><b>Milliy g'oya targ'ibotida ommaviy axborot vositalarining o'rni</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <p>1. Milliy g'oyani yangi texnologiyalar asosida targ'ib qilish, uni bosqichma-bosqich asosida amalga oshirish.</p> <p>2. Milliy g'oya targ'ibotida Ommaviy axborot vositalarining o'rni.</p> <p>3. Globallashuv va OAV ko'rinishlari.</p>	<b>2</b>
<b>10</b>	<p style="text-align: center;"><b>Milliy g'oya targ'ibotida xalq og'zaki ijodidan foydalanishning o'ziga xos usullari</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <p>1. Xalq og'zaki ijodining voyaga etayotgan avlod qalbida milliy ruhiyatning uyg'onishiga ta'siri.</p> <p>2. Xalq og'zaki ijodining dostonchilik, baxshichilik yo'nalishlari.</p> <p>3. Xalq oyinlarini tiklash borasida amaliy hatti-harakatlar olib borish zarurligi.</p>	<b>2</b>
<b>11</b>	<p style="text-align: center;"><b>Milliy g'oya targ'ibotida milliy-madaniy markazlarning o'rni va roli</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <p>1. Milliy g'oya va milliy mafkura –O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha o'zbekistonlik fuqarolarining g'oya va mafkurasi ekanligi.</p> <p>2. O'zbekistondagi milliy madaniy markazlar.</p> <p>3. Milliy madaniy markazlarni milliy g'oya targ'ibotiga kengroq jalb etish zaruriyati.</p>	<b>2</b>
<b>12</b>	<p style="text-align: center;"><b>Globallashuv jarayonida yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirish texnologiyalari</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-mashg'ulot</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <p>1. Dunyo rivojlanishining yangicha bosqichi.</p> <p>2. «Globallashuv» tushunchasi, turli g'oyalar va mafkuralar ko'rinishlari va mafkuraviy ta'sirlar darajasi.</p> <p>3. Milliy g'oyani xalq va davlat manfaati sifatida qabul qilishning muhim</p>	<b>4</b>



	<p>ahamiyati.</p> <p style="text-align: center;"><b>2-mashg'ulot</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Globallashuv sharoitida texnologiyalardan turli-xil maqsadda foydalanish ehtimoli.</li> <li>2. Globallashuv va liberallashuvning insonlar ongi va dunyoqarashiga ta'siri.</li> <li>3. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lini malga oshirishda turli ezgu g'oyalar ahamiyatining oshib borishi.</li> </ol>	
<b>13</b>	<p><b>Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari</b></p> <p style="text-align: center;"><b>1-mashg'ulot</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yoshlarning ongiga milliy g'oya xususiyatlarini singdirish – milliy siyosatimizning asosiy yo'nalishlaridan biri</li> <li>2. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalaridan foydalanishning asosiy maqsadi.</li> <li>3. Targ'ibot texnologiyalarining yangilanib va takomillashib borishi shart-sharoitlari</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>2-mashg'ulot</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Reja:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>4. Globallashuv jarayonida mafkuraviy targ'ibot texnologiyalarning ta'siri.</li> <li>5. Yoshlar qatlami orasida milliy g'oya targ'ibotini keng yoyishni mohiyati.</li> <li>6. Yoshlar orasida milliy g'oya targ'ibotini natijador samarasini baholovchi mezonlar.</li> </ol>	<b>4</b>
<b>Jami 32 soat</b>		
<b>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</b>		
<p>Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor talabaning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va keys-stadilar)ni mustaqil ravishda, ya'ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o'qib o'rganishi va shu yo'nalish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishiga qaratiladi. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;</li> <li>- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;</li> <li>- mustaqil ishlar, keys-stadilar bilan ishlash;</li> <li>- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;</li> <li>- fanga oid statistik ma'lumotlarni o'rganish, ularni tahlil qilish;</li> <li>- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularni chuqur o'rganish;</li> <li>- faol va muammoli o'qitish usulidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari</li> </ul> <p style="text-align: center;"><b>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyasi asoslariga qo'yiladigan talablar</li> <li>2. Milliy g'oya targ'iboti samaradorligi mezonlari va tamoyillari</li> <li>3. Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologik uslublardan foydalanish shart-sharoitlari va omillari</li> <li>4. Interfaol usulda birgalikda o'qitish va guruhlar bilan ishlash texnologiyasi</li> <li>5. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari samaradorligiga erishish yo'llari va omillari</li> </ol>		

<p>6. Zamonaviy texnologik uslublardan foydalanishining turli xil ko'rinishlari va natijalari</p> <p>7. Interfaol usullarning pedagogik texnologiyalar tamoyillariga mosligi va uning ahamiyati</p> <p>8. Milliy g'oya targ'iboti va "Jamoatchilik bilan aloqalar"ning o'zaro munosabati</p> <p>9. Milliy g'oya targ'ibotida "Jamoatchilik bilan aloqalar"ning demokratik asoslari va zamonaviy ko'rinishlari</p> <p>10. Oliy ta'lim tizimining ta'lim tizimidagi o'rni, oliy ta'limda ijtimoiy gumanitar fanlar orqali milliy g'oya targ'ibotini amalga oshirish zarurati.</p> <p>11. Milliy g'oyani o'qitishning didaktik asoslari. Texnologik yondoshuvning mohiyati.</p> <p>12. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari: shakllari, sohalari va yo'nalishlarining xilma-xilligi.</p> <p>13. "Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari" kursining predmeti, maqsadi va vazifalari</p> <p>14. "Jamoatchilik bilan aloqalar"da jahon tajribasi va targ'ibotda milliy ma'naviy xususiyatlarni hisobga olishning ahamiyati</p> <p>15. Milliy g'oya targ'ibotida ijtimoiy-gumanitar fanlarning imkoniyatlari.</p> <p>16. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalaridan foydalanishning usul va vositalari.</p> <p>17. "Texnologiya", "Targ'ibot texnologiyasi", "Milliy g'oya targ'iboti texnologiyasi" tushunchalari</p> <p>18. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning g'oyaviy-mafkuraviy vazifalari.</p> <p>19. Milliy g'oya targ'ibotida "Kud strategiyasi" texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati.</p> <p>20. O'qitish texnologiyalarini loyihalash qonunlari.</p> <p>21. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining vazifalari:</p> <p>22. G'oyaviy-mafkuraviy ishlarda falsafaning o'rni.</p> <p>23. Milliy g'oya targ'ibotida "Muhokama-munozara", "Rotatsiya" texnologiyalaridan foydalanish.</p> <p>24. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari o'quv fani mavzusi bo'yicha o'quv axborotlarini saralash qonuni.</p> <p>25. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda milliy g'oyani targ'ib qilish texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati.</p> <p>26. G'oyaviy targ'ibotda ijtimoiy-gumanitar fanlarning usullaridan foydalanish shart-sharoitlari.</p> <p>27. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi islohotlar, rejalar va istiqbollar.</p> <p>28. Milliy g'oya targ'ibotida pedagogik texnologiyalarni qo'llash usullari.</p> <p>29. Didaktik jarayonni qurish va o'quv vaqti davomida uni amalga oshirish qonuni.</p> <p>30. Texnologiyalar jamiyatning barcha sohalarida o'zining muhim o'rniga ega ekanligi.</p> <p>31. Targ'ibot texnologiyalari samaradorligini belgilovchi mezonlar.</p> <p>32. Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologik uslublar tushunchasi, uning ma'no-mazmuni.</p> <p>33. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari; shakllari, sohalari va yo'nalishlari.</p> <p>34. G'oyaviy ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishning targ'ibot texnologiyalariga bog'liqligi.</p> <p>35. Milliy g'oyani targ'ib qilishning an'anaviy va zamonaviy yo'nalishlari.</p> <p>36. Milliy g'oya targ'ibotida "Jamoatchilik bilan aloqalar" tushunchasining ma'no va</p>
--

	<p>mazmuni.</p> <p>37. Milliy g'oya targ'iboti samaradorligini oshirishda "Izohli-tasviriy yondashuv" texnologiyalari.</p> <p>38. Zamonaviy texnologik uslublar to'g'risida an'anaviy nazariyalar, modernizatsiya jarayonlari.</p> <p>39. Milliy g'oya targ'ibotida jamoatchilikning qabul qilish darajasi va yo'nalishlari.</p> <p>40. Milliy g'oyani yangi texnologiyalar asosida targ'ib qilish, uni bosqichma-bosqich asosida amalga oshirish.</p> <p>41. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining samaradorligini oshirishning yo'llari</p> <p>42. Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologiyalarning asosiy vazifalari.</p> <p>43. Jamoatchilik bilan ishlashda targ'ibot texnologiyalaridan foydalanish usullari.</p> <p>44. Milliy g'oyada O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillari manfaatlarining ifoda etilganligi.</p> <p>45. Milliy g'oya targ'ibotida so'z va amal birligi.</p> <p>46. Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy o'zaro muloqot, bahs, munozara, masofali o'qitish, interfaol usul va uslublaridan foydalanishning ahamiyati.</p> <p>47. Milliy g'oyani targ'ib etishda "jamoatchilik bilan aloqalar" texnologiyasi ko'rinishlari.</p> <p>48. Milliy g'oya targ'ibotida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rni va ahamiyati</p> <p>49. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari: predmeti, maqsadi va vazifalari</p> <p>50. Oliy ta'lim tizimida o'qitish texnologiyasi: mazmun-mohiyati, tuzilmasi va tasnifi</p> <p>51. Milliy g'oya targ'ibotida "Ekspert baholash" usuli, "Klatser" usuli, interfaol usul va uslublaridan foydalanishning ahamiyati.</p> <p>52. Milliy g'oya fanining pedagogik texnologiya asosida o'qitish nazariyasi</p> <p>53. Milliy g'oya targ'ibotini takomillashtirishning asosiy omillari</p> <p>54. Milliy g'oya targ'ibotida "Jamoatchilik bilan aloqalar"</p> <p>55. Milliy g'oya targ'ibotida "Sinkveyn" usuli, "O'yinlar nazariyasi" usuli, interfaol usul va uslublaridan foydalanishning ahamiyati.</p> <p>56. Milliy g'oya targ'ibotida ommaviy axbotot vositalarining o'rni</p> <p>57. Milliy g'oya targ'iboti samaradorligini oshirishning dolzarb vazifalari</p> <p>58. Demokratik jamiyatda milliy g'oya targ'ibot texnologiyalarning rivojlanish jarayonlari</p> <p>59. Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy "Aqliy hujum" usuli, "Menyu" usuli va boshqa interfaol usul va uslublaridan foydalanishning ahamiyati.</p> <p>60. Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologik uslublar</p> <p>61. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari fanining predmeti, maqsadi va vazifalari</p> <p>62. Oliy ta'lim tizimida "Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari" fanining tuzilmasi va tasnifi</p> <p>63. Milliy g'oyani o'qitishda pedagogik texnologiyalar nazariyasi va uning ahamiyati</p> <p>64. Milliy g'oya targ'ibotini takomillashtirish tushunchasi, ma'no-mazmuni</p> <p>65. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari fanining asosiy tushunchalari, ma'no-mazmuni</p> <p>66. Ijtimoiy gumanitar fanlar tizimi va milliy g'oya negizlari</p> <p>67. Oliy ta'lim tizimida milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarini modernizatsiyalash va innovatsiyasi</p> <p>68. Milliy g'oyani o'qitishda nazariya va amaliyot birligi, uning avfzalligi</p> <p>69. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari fanini o'rganish usullari va tamoyillari</p>
--	---

	<p>70. Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitishda ajdodlar merosi, xalqlarning orzu umidlari aks etgan manbalar</p> <p>71. Milliy g'oya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish</p> <p>72. Milliy g'oya targ'ibotini takomillashtirish shart - sharoitlari va omillari</p> <p>73. Milliy g'oya targ'iboti va ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'zaro bog'liqligi</p> <p>74. Oliy ta'lim tizimida o'qitish texnologiyasi tushunchasining mazmun-mohiyati</p> <p>75. Milliy g'oya targ'ibotini takomillashtirish yo'llari va texnologiyalari</p> <p>76. Milliy g'oya targ'ibotini texnologik asoslari tushunchasining ma'no-mazmuni</p> <p>77. Milliy g'oya targ'iboti texnologik asoslari tuzilmasi va tasnifi</p> <p>78. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarining samaradorligi tushunchasi, uning ta'rifi va tavsifi</p>
3	<p><b>Fan o'qitilishining natijalari</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>“Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari” fanining predmeti, obykti, maqsad va vazifalari, milliy g'oya targ'ibotida ijtimoiy- gumanitar fanlarning o'rni va ahamiyati, milliy g'oya targ'iboti samaradorligini oshirishning dolzarb vazifalari xamda yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirish texnologiyalari tug'risida bilimga;</p> <p>Milliy-g'oya targ'iboti texnologiyalari fani oldidagi vazifalar, milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari mazmun-mohiyati, tuzilmasi va tasnifi, milliy g'oya fanining pedagogik texnologiya asosida o'qitish nazariyasi, milliy g'oya targ'ibotini takomillashtirishning asosiy omillari, milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologik uslublar, xamda milliy g'oya targ'iboti texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlarini uchun <b>ko'nikma</b>;</p> <p>Milliy goya targ'iboti texnologiyalarini amalda qo'llay bilishi, milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologik uslublardan foydalana olishi, milliy g'oya fanini o'qitishda didaktik jarayon loyixasining interfaol usullaridan foydalana bilishi, milliy g'oya targ'ibotida jamoatchilik bilan aloqalarni yulga qo'ya olishni amalda qo'llay bilish malakalarga ega bo'lishi kerak.</p>
4	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash vaimoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p> <p><b>Joriy nazorat.</b> Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juftlik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.</p> <p><b>Oraliq nazoratlar.</b> Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.</p> <p>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy</p>

	<p>nazorat topshirishga ruxsat beriladi.</p> <p style="text-align: center;"><b>Yakuniy nazorat</b></p> <p>Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o'tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.</p>
<b>6</b>	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ergashev I. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari. - T.: Mashhur PRESS, 2016 yil.</li> <li>2. Ergashev I. Milliy istiqloq g'oyasi. - T.: Akademiya, 2005 yil.</li> <li>3. G'ulomov J. Tarbiyaviy korreksion faoliyatning yoshlarda moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligini tarbiyalashdagi o'rni. - T.: TDPU, 2001 yil.</li> <li>4. G'oya va mafkura. - T.: «Ijod dunyosi» nashr uyi, 2002 yil.</li> <li>5. Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy taxdidlar. - T.:«Ijod dunyosi» nashr uyi, 2002 yil.</li> <li>6. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. - T.:«Ijod dunyosi» nashr uyi, 2002 yil.</li> <li>7. Milliy g'oya: targibot texnologiyalari va atamalar lugati. - T.: “Akademiya” nashriyoti, 2007 yil.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -Toshkent: “O'zbekiston” NMIU,2017.</li> <li>2. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir. -Toshkent: “O'zbekiston” NMIU,2018</li> <li>3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha xarakterlik strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)</li> <li>4. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fanlar tarixidan - T.: O'zbekiston, 1995 yil</li> <li>5. Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi - T.:Chulpon, 1995 yil.</li> <li>6. Komilov N. Tasavvuf - T.:O'zbekiston 1996 yil.</li> <li>7. Xoshimov K va boshkalar. Pedagogika tarixi - T.:O'zbekiston, 1996 yil.</li> <li>8. Jalolov. A. Mustaqillik masuliyati - T.: O'zbekiston, 1996 yil.</li> <li>9. Soifnazarov I. Vatanparvarlikning milliy va umuminsoniy jixatlari - T.: Mexnat, 1997 yil, 23 bet.</li> <li>10. Aburauf Fitrat. Oila-T.:Ma'naviyat,1998 yil.</li> <li>11. Vatan saodati- T.:Sharq, 1998 yil.</li> <li>12. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar - T.: Sharq, 1998 yil.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. www.tdpu.uz</li> <li>2. www. Ziyonet. uz</li> <li>3. www. edu. uz</li> <li>4. www. manaviyat. Uz</li> <li>5. www.bilim.uz</li> <li>6. www.jspi.uz</li> </ol>
<b>7</b>	<b>Jizzax davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan</b>
<b>8</b>	<b>Fan/modul uchun mas'ul: M.Nabiyev</b>
<b>9</b>	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>I.Ergashev – O'zMU Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi kafedrasi professori, siyosiy fanlari doktori</p> <p>K.Yusupov – “Falsafa, tarbiya va huquq ta'limi” kafedrasi o'qituvchisi</p>





